




O'QUVCHILARNI IMLOGA O'RGATISHDA QOIDALAR TIZIMI VA MOHIYATI

Aliyeva Nigora bosh o'qituvchi,
Umarova Zilola yetakchi o'qituvchi

Qo'qon pedagogika instituti akademik litseyi

Annotatsiya.

Maqolada o'quvchilarning savodxonligini o'ttirishda orfografiyaning o'rni va unda uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan.

Аннотация.

В статье показана роль орфографии в повышении грамотности учащихся и приведены рекомендации по преодолению недостатков.

Annotation.

The article shows the role of spelling in improving the literacy of students and guidelines for overcoming shortcomings.

Kalit so'zlar:

Orfografiya, imloviy ko'nikmalar, orfografik tamoyillar, orfografik qoidalar, orfografik xato.

Ключевые слова:

Орфография, навыки, правописания, принципы правописания, правила правописания, орфографические ошибки.

Keys words:

Spelling, spelling skills, spelling principles, spelling rules, spelling error

Maktablarda imloni o'rgatish va o'qitishga bog'liq o'zbek tilida ko'plab ilmiy-metodik tavsiyalar, qo'llanmalar, maqolalar anchagina. Bu tur ishlarda o'quvchilarning savodxonligini o'ttirishda orfografiyaning o'rni va unda uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan.

Asosan, yangi o'zbek imlosiga qoidalarini ba'zan to'g'ri foydalanmasdan ikki xil yozish hollari ko'zga tashlanadi. O'quvchilarning savodxonligini o'ttirishda imlo qoidalarini chuqur o'rganish alohida diqqatga molikdir. O'quvchilarda imloviy ko'nikmalarni mustahkamlash - faqat fonetika yoki grammatikani o'rgatish davridagina emas, balki izchil uzoq vaqt ishlashish natijasida shakllanib boradi¹. Mazkur vazifani amalga oshirishda o'zbek tilida orfografiya tamoyillarini va uning o'qitish holati, o'zbek tili orfografiyasining o'ziga xosligi, o'quvchilarning yozuv paytida psixologik va fiziologik ta'sirini va uning tilga aloqasi va

¹ Gulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, 1992, 5-bet.

o'quvchilarning o'zlarining atrof muhitga bog'liq nuqtai nazardan o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

Bu vositalar muntazam mashqlar qilish natijasida amalga oshiriladi. Bu mashqlarda so'zlarning yozilishiga diqqat qilish, ularni bir-biri bilan qiyoslash va tahlil qilish, orfografik xatolarni o'zlashtirish va mashqlar o'tkazish zarur. Maktablarda hozirgi kunda qo'llanilib yurgan darsliklarda o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarning imlosi, aytilishi va yozilishiga oid materiallar berilgan, diqqat e'tibor qilingan. So'zlarni to'g'ri yozishda xalq pedagogikasining, metodikaning asosiy tamoyillaridan hisoblangan onglilik tamoiili katta ahamiyatga ega. Sababi, o'quvchi orfografik qoidalarini ongli o'zlashtirib olsa, uni kundalik amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llanishga muvofiq bo'ladi.

Imloni o'qitish o'quvchilarning har xil turdagi yozuvlarni izchil o'zlashtirishishi natijasida amalga oshiriladi. Bunday izchillik tizimi saqlanmasa, orfografik qoidalarini quruq yod oladi, savodli yozish ko'nikmasi mustahkamlanmaydi. Shuning uchun o'quvchilar dastlab so'zlarning eshitalishi bo'yicha yoza oladiganlarini, so'ngra aytilishi bilan yozilishi orasidagi farqli so'zlarni yozib o'rgangani ma'qul. To'g'ri, bu tamoyil yozuvda saqlanmasligi mumkin. Bunda aytilishi bilan yozilishi orasidagi bir-biriga muvofiq kelmaydigan so'zlar bo'yicha ishlar ko'proq olib borilishi zarur. Bunday ish turlari o'quvchilarning imlo qoidalarining u yoki bu turlarining barchasini har tamonlama ongli o'zlashtirib olish va uni o'zida, mustahkam doimiy o'qib olishni ta'minlaydi².

Shuningdek, o'quvchilarning imloviy ko'nikmalarini shakllashtirishida so'zlarni, matnlarni o'qitish katta ahamiyatga ega. So'zlarni to'g'ri yozishda esa ularni morfemalarga to'g'ri ajrata bilish talab qilinadi. Yozuvda bir harf o'rniga barcha harf almashinib ketish natijasida imlo xatolari paydo bo'ladi. O'qish paytida esa o'quvchilardan so'zlarni morfemalarga ajratish talab qilinmaydi, so'zlarni to'liq o'qiydi, shuning uchun o'quvchi bir harf o'rniga boshqa harfning olmashib kelishini sezmaydi. Shuning uchun, imloni o'qitish asosan, yozuv va o'quv texnikasini o'rgatishdan boshlanadi.

O'quvchiga bilim berish dastlab to'g'ri o'qishga o'rgatish orqali olib boriladi. Agar o'quvchi so'zlarni o'qishda adabiy til qoidalarini saqlasa, ular so'zlarni yozishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun o'quvchilar so'zlarni o'qiganda va ularni og'zaki aytganda iloji boricha to'g'ri talaffuziga e'tibor berish zarur.

O'zbek orfografiyasining tamoyillariga imlo o'rgatishda rioya qilinmasa, imloviy mavzu ustida ishlashda bir yoqlamalilik bo'lib, dars samaradorligiga erishib bo'lmaydi. O'qituvchi har bir imloviy mavzuning qaysi orfografik prinsipga dahldor ekanini yaxshi bilishi kerak. Masalan, kishilarning ismi, familiyasi, qishloq, ko'cha nomlari deyarli tarixiy traditsion prinsip asosida yoziladi. Bu nomlarning bosh harfi bilan yozilishini maxsus qoida asosida o'rgatamiz. Ammo bosh harfdan keyingi harflar tizimi faqat ko'ruv-eshituv orqali o'zlashtirilishi mumkin. Bunday mavzularni mustahkamlash topshiriqli ko'chirib yozuv (orfogrammalarining tagiga chizish, ularni matndan ajratib ko'chirib yozish) saylanma lug'at ko'ruv, sharhli diktantlardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi imloga o'rgatishda qoidalar tizimi va mohiyati asosida ish olib bormasa, o'quvchilarda imlo malakalari to'la shakllanmaydi.

Umuman, o'quvchilar fonetik, grammatik tushunchalar mohiyatini bilishmasa, orfografik tushunchalarni ham o'zlashtirisha olishmaydi. Demak, orfografika o'zining tabiati bilan fonetik, grammatikaga va hatto leksikologiyaga tayyanadi. Shuning uchun ham maktabda imlo o'qitishda o'zbek tilining lingvistik xususiyatlari doimo e'tiborda bo'lishi talab etiladi.

² Beshinchi sinf uchun dastur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, 1992, 5-bet.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent, 1992.
3. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1992.
4. Umumiy ta'lim maktablarida ona tilini o'qitishni takomillashtirish. Toshkent, 1987.
5. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'lim mazmuni. Toshkent, 1995.